


**2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan
korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 6295 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2683 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4589 ta (15,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 33432 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 33432 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,7 % savdo, 21,1 % sanoat, 8,9 % qurilish, 6,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,8 % axborot va aloqa hamda 23,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %

Jami	28843	33432	115,9	100
-------------	--------------	--------------	--------------	------------


shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1993	2119	106,3	6,3
Sanoat	5846	7055	120,7	21,1
Qurilish	2530	2980	117,8	8,9
Savdo	7341	8943	121,8	26,7
Tashish va saqlash	1115	1262	113,2	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1366	1729	126,6	5,2
Axborot va aloqa	565	594	105,1	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	658	765	116,3	2,3
Boshqa turlari	7429	7985	107,5	23,9

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10878 ta), Asaka (2973 ta), Andijon (2422 ta), Shahrixon (2411 ta), Qo'rg'ontepa (1699 ta), Oltinko'l (1696 ta) va Izboskan (1623 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Buloqboshi (907 ta), Bo'ston (856 ta), Ulug'nor (630 ta) tumanlari hamda Xonobod (603 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31954 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4554 ta (16,6 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10492 ta), Asaka (2946 ta), Shahrixon (2200 ta), Andijon (2172 ta) va Oltinko'l (1658 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Buloqboshi (896 ta), Bo'ston (848 ta), Ulug'nor (620 ta) tumanlari hamda Xonobod (596 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil yanvar-noyabr oylarida 6295 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2683 taga ko'pdir.

**Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1665 ta), Asaka (595 ta), Shahrixon (513 ta), Andijon (466 ta), Izboskan (342 ta) va Oltinko'l (338 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Jalaquduq (255 ta), Xo'jaobod (241 ta), Buloqboshi (215 ta), Bo'ston (206 ta), Xonobod shahri (178 ta) hamda Ulug'nor (101 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2368 ta), sanoat (1689 ta), qurilish (560 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (432 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (239 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (126 ta) va axborot va aloqa (96 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga 27145 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5828 ta, oilaviy korxonalar – 1264 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19473 ta va boshqalar 580 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 299 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 89 taga yoki 42,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va boshqa davlatlar hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 299 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Andijon shahri (116 ta), Andijon (27 ta), Shahrixon (20 ta), Asaka (17 ta) va Oltinko'l (17 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Qo'rg'ontepa, Bo'ston va Jalolquduq (8 tadan), Izboskan (7 ta), Paxtaobod (6 ta) hamda Ulug'nor (5 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 158 tasi qo'shma korxonalar, 141 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	299	100,0
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	17	5,7
Andijon	27	9,0
Baliqchi	12	4,0
Bo'ston	8	2,7
Buloqbo'shi	12	4,0
Jalolquduq	8	2,7
Izboskan	7	2,3
Ulug'nor	5	1,7
Qo'rg'ontepa	8	2,7
Asaka	17	5,7
Marhamat	12	4,0
Shahrixon	20	6,7
Paxtaobod	6	2,0
Xo'jaobod	11	3,7
Andijon sh.	116	38,8
Xonobod sh.	13	4,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 90 tani tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 46 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (36 ta yoki jamidagi ulushi 40,1 %), Andijon (10 ta yoki 11,1 %), Honabod shahar, Asaka, Xo'jaobod va Oltinko'l tumanlari (5 tadan yoki 5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Paxtaobod va Jalolquduq tumanlari (2 tadan yoki 2,2 %), Ulug'nor hamda Qo'rg'ontepa (1 tadan yoki 1,1 %), tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Izboskan tumanida tashkil etilmagan.


**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 20 ta, Turkiya Respublikasi - 16 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 16 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 13 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 6 ta, Hindiston Respublikasi - 4 ta va Qozog'iston Respublikasi - 3 ta hamda boshqa davlatlar - 6 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, BelarusiyaБелоруссия, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 44 ta (48,9 %), savdo 12 ta (13,3 %), qurilish 12 ta (13,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (7,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 3 ta (3,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1 ta (1,1 %) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**




Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 27014 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 19,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9376 tasi (34,7 %) Andijon shahri, 2550 tasi (9,5 %) Asaka, 1890 tasi (7,0 %) Andijon, 1836 tasi (6,8 %) Shahrixon hamda 1387 tasi (5,1 %) Oltunko'l tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 27014 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8436 tasi (31,2%) - savdo, 6699 tasi (24,8%) - sanoat, 2849 tasi (10,5%) - qurilish, 1924 tasi (7,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1642 tasi (6,1%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1206 tasi (4,5%) - tashish va saqlash, 663 tasi (2,5%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 552 tasi (2,0%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 3043 tasi (11,3%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 6059 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3070 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (1592 ta), Asaka (580 ta), Shahrixon (498 ta), Andijon (456 ta) va Izboskan tumanlari (333 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Buloqboshi (203 ta), Bo'ston (196 ta), Xonobod shahrida (177 ta) hamda Ulug'nor (95 ta) tumanlari tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2368 ta), sanoatda (1688 ta), qurilishda (560 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (432 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (124 ta) hamda axborot va aloqada (96 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 1296 tani tashkil etib, ulardan 1264 tasi yoki 97,5 % faoliyat ko'rsatayotgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 2,2 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan Faoliyat ko'rsatayotgan Faoliyat ko'rsatmayotgan




Ro'yxatdan o'tgan Faoliyat ko'rsatayotgan Faoliyat ko'rsatmayotgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,2 % yoki 533 tasi sanoat, 20,2 % yoki 255 tasi savdo, 15,5 % yoki 196 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 10,6 % yoki 134 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 13 tasi qurilish, 0,9 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 8,4 % yoki 107 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	745	100,0
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	60	8,1
Andijon	118	15,8
Baliqchi	9	1,2
Bo'ston	75	10,1
Buloqbooshi	50	6,7
Jalolquduq	1	0,1
Izboskan	17	2,3
Ulug'nor	14	1,9
Qo'rg'ontepa	28	3,8
Asaka	173	23,2
Marhamat	7	0,9
Shahrixon	45	6,0
Paxtaobod	6	0,8
Xo'jaobod	2	0,3
Andijon sh.	120	16,1
Xonobod sh.	20	2,7

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 745 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 644 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Asaka (173 ta), Andijon shahri (120 ta), Andijon (118 ta) va Bo'ston (75 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Baliqchi (9 ta), Marhamat (7 ta), Paxtaobod (6 ta), Xo'jaobod (2 ta) va Jalaquduq (1 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,1 % yoki 306 tasi sanoat, 28,1 % yoki 209 tasi savdo, 17,9 % yoki 133 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % yoki 25 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,9 % yoki 7 tasi qurilish, 0,4 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,4 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,7 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo‘limi

Tel.:74-228-29-74